

## Ochiq ma'lumotlar PF-6247 bo'yicha

1-band: Davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyatiga oid hisoboti (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)

3-band: Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)

4-band: Mansabdar shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)

5-band: Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar (xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin)

6-band: Davlat xaridlari va investisiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror; xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi).

10-band: Davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, ushbu korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tasarrufidagi yengil avtomobillar, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar

14-band: Tasdiqlangan yillik xarajatlari smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan ob'yektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar

15-band: Davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno)

16-band: Lisenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi) to'g'risidagi ma'lumotlar

24-band: Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga ijara huquqini berish bo'yicha ochiq tanlov g'oliblari bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar

25-band: Mahalliy byudjetlarning har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar va xarajatlар smetasi, rejadan orttirib bajarilgan qismi va mazkur mablag'lar yo'naltirilgan maqsadlar to'g'risidagi ma'lumotlar

29-band: Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari); jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar

30-band: Davlat organlari va tashkilotlarining tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejali (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)

31-band: Davlat organlariga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar

34-band: O'zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar

38-band: Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnomalar yoki boshqa ichki idoraviy hujjat)

39-band: Bo'sh ish o'rnlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar

2024-02-08 13:40:21